

**BOSHLANG‘ICH SINIF DARS MASHG‘ULOTLARNING  
SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA METODLARNING O‘RNI**

*Zokirov Javohir G‘aybullo o‘g‘li,*

*Termiz Iqtisodiyoy va servis universiteti o‘qituvchisi*

*Badalov Kamoliddin Rahmat o‘g‘li*

*Termiz Iqtisodiyoy va servis universiteti o‘qituvchisi*

*Tojiyev Husniddin Baxtiyorovich*

*Termiz Iqtisodiyoy va servis universiteti o‘qituvchisi*

*E-mail: zjavohir6@gmail.com*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada boshlang‘ich sinf darslarida qo‘llanadigan metodlarning o‘ziga xos xususiyatlari, boshlang‘ich ta‘limda o‘quvchilarni tarbiyaviy jihatlarining kamol topishida dars mashg‘ulotlarida qo‘llaniladigan - metodlar va ularni qo‘llash usullari haqida fikr yuritilgan.

**Tayanch so‘zlar:** Ta‘lim, metodlar, interfaol metodlar, tarbiya, og‘izaki metodlar, amaliy metodlar, ko‘rgazmali metodlar.

Bugungi kunda ta‘limning sifatiga e‘tibor kundan-kunga ortib borayotgan pallada, ta‘lim jarayonida turli metodlar, pedagogik va axborot texnologiyalarini o‘quv jarayonida qo‘llashga bo‘lgan talab ortib bormoqda. Buning asosiy sabablaridan biri ta‘limda o‘quvchilar faqat tayyor bilimlarni egallashga o‘rgatilgan bo‘lsa, zamonaviy texnologiyalar ularni egallayotgan bilimlarini mustaqil o‘rganib, tahlil qilishlariga, o‘zlari qidirib topishlariga, hatto umumiy xulosalarni ham o‘zlari keltirib chiqarishlariga o‘rgatadi [1]. Hozirgi kunda o‘qituvchilar tomonidan darslarni yaxshi tushuntirish yoki o‘quvchilar olgan bilimlarni tekshirish uchun dars jarayonida turli xil metodlardan foydalanishadi. Metodlar oraqli o‘quvchilar berilgan mavzuni yaxshi tushuntira olsalar, ta‘lim oluvchilar shu metodlar orqali mavzuni yaxshi tushunib oladilar, shu metodlar orqali o‘qituvchi ham o‘quvchilar ham ko‘zlagan natijaga tez erishadilar. O‘qituvchi ta‘lim berish jarayonda shaxsning rivojlanishi, shakllanishi, bilim olishi va tarbiyalanishiga sharoit yaratadi [2].

Metod so‘zi “yunoncha” so‘zdan olingan bo‘lib “tadqiqot yo‘li”, “nazariya”, “usul” degan ma‘noni bildiradi.

Metodlarning quydagi turlari mavjud:

1. Og‘izaki metodlar
2. Amaliy metodlar
3. Ko‘rgazmali metodlar ga bo‘linadi [3].

Boshlang‘ich sinflarda ko‘proq ko‘rgazmali metodlardan foydalanish yaxshi samara beradi. Chunki maktabga qadam qo‘ygan o‘quvchilarni o‘yin faoliyatidan

ta'lim jarayoniga olib kirishda ko'rgazmali metodlar qo'l keladi. Bu metodlar orqali bolalarda ta'limga bo'lgan qiziqishi ortib boradi hamda darsdan tezda zerikib qolmaydi. Shu sababli zamonaviy ta'lim jarayonida o'qitishning eng samarali va foydali metodlaridan keng foydalanilmoqda. Bunday metodlarni qo'llash hamda zamonaviy texnologiyalardan foydalanish orqali o'quvchilarning bilim salohiyati o'sib bormoqda [4].

Boshlang'ich sinf darslarining qay darajada qiziqarli o'tishi o'qituvchining tayyorgarligiga bog'liq. Bolalarning o'qish va yozish, hisoblash malakalarini oshiruvchi, ularni mustaqil fikrlashga, mantiqan o'ylashga, xulosa chiqarishga yo'naltirilgan zamonaviy va innovatsion texnologiyalar asosidagi mashg'ulotlar mazkur fanlarning boshlang'ich sinflardan boshlab mukammal o'rgatilishiga asos bo'lib xizmat qiladi [5].

Bugungi kunda respublika ta'lim muassasalarida interfaol ta'limni tashkil etishda quyidagi eng ommaviy texnologiyalar qo'llanilmoqda: Interfaol metodlar: "Keys-stadi" (yoki "O'quv keyslari"), "Blits-so'rov", "Modellashtirish", "Ijodiy ish", "Munosabat", "Reja", "Suhbat" va boshqalar [6]. Grafik organayzerlar: "Baliq skeleti", "BBB", "Kontseptual jadval", "Venn diagrammasi", "Insert", "Klaster", "Nima uchun?", "Qanday?" va boshqa turlari mavjud [7].

Metodlardan foydalanib o'tkazilgan mashg'ulotlar yoshlarning muhim hayotiy yutuq va muammolariga o'z munosabatlarini bildirishlariga intilishlarini qondirib, ularni fikrlashga, o'z nuqtai nazarlarini asoslashga imkoniyat yaratadi [8].

Bugungi kunda bo'layotgan innovatsion jarayonlarda zamonaviy ta'lim tizimi oldidagi muammolarni hal etish uchun yangi axborotni o'zlashtirish va o'zlashtirgan bilimlarini o'zlari tomonidan baholashga qodir, zarur qarorlar qabul qiluvchi, mustaqil va erkin fikrlaydigan shaxslar kerak [9-13]. Shuning uchun ham, ta'lim muassasalarining o'quv-tarbiyaviy jarayonida zamonaviy o'qitish metodlari-interfaol metodlar, innovatsion texnologiyalarning o'rni va ahamiyati beqiyosdir. Metodlar va ularning ta'limda qo'llanishiga oid bilimlar, tajriba o'quvchilarni bilimli va yetuk malakaga ega bo'lishlarini ta'minlaydi [14-17].

Innovatsiya (inglizcha innovation) yangilik kiritish, yangilik degan ma'noni bildiradi. Innovatsion metodlar pedagogik jarayon hamda o'qituvchi va o'quvchi faoliyatiga yangilik, o'zgarishlar kiritish bo'lib, uni amalga oshirishda asosan turli xil usullardan foydalaniladi [18].

Interfaol ("Inter" – bu o'zaro, "act" –harakat qilmoq)-o'zaro harakat qilmoq yoki kim bilan suhbat, muloqat tartibida bo'lishni anglatadi. Interfaol metodlar orqali har ikki tomon faol bo'lishi ko'zda tutiladi. Talim beruvchi ham ta'lim oluvchi ham inter faol metodlar orqali mashg'ulot davomida faol bo'lishadi. Boshqa so'z bilan aytganda, o'qitishning interfaol uslubiyotlari – bilish va kommunikativ faoliyatini tashkil etishning maxsus shakli bo'lib, unda ta'lim oluvchilar bilish jarayoniga jalb qilingan

bo‘ladilar, ular biladigan va o‘ylayotgan narsalarni tushunish va fikrlash imkoniyatiga ega bo‘ladilar [19-21]. Interfaol darslarda o‘qituvchining o‘rni qisman o‘quvchilarning faoliyatini dars maqsadlariga erishishga yo‘naltirishga olib keladi. Bu metodlarning o‘ziga xosligi shundaki, ular faqat pedagog va o‘quvchilarning birgalikda faoliyat ko‘rsatishi orqali amalga oshiriladi [22].

Bunday pedagogik hamkorlik jarayoni o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘lib, ularga:

1. O‘quvchining dars davomida befarq bo‘lmaslikka, mustaqil fikrlash, ijod qilish va izlanishga majbur etilishi;
2. O‘quvchilarning o‘quv jarayonida fanga bo‘lgan qiziqishlarini doimiylikni ta‘minlanishi;
3. O‘quvchilarning fanga bo‘lgan qiziqishlarini mustaqil ravishda har bir masalaga ijodiy yondashgan holda kuchaytirilishi;
4. Pedagog va o‘quvchilarning hamkorlikdagi faoliyatini doimiy ravishda tashkil etilishlari kiradi.

Pedagogik texnologiyaning eng asosiy negizi - o‘qituvchi va o‘quvchining belgilangan maqsaddan kafolatlangan natijaga hamkorlikda erishishlari uchun tanlagan metodlariga bog‘liq [23]. O‘qitish jarayonida, maqsad bo‘yicha kafolatlangan natijaga erishishda qo‘llaniladigan har bir metodlar o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasida hamkorlik faoliyatini tashkil eta olsa, har ikkalasi ijobiy natijaga erisha olsa, o‘quv jarayonida o‘quvchilar mustaqil fikrlab, ijodiy ishlab, izlanib, tahlil qilib, o‘zlari xulosa chiqara olsalar, o‘zlariga, jamoaga, jamoa esa ularga baho bera olsa, o‘qituvchi esa ularning bunday faoliyatlari uchun imkoniyat va sharoit yarata olsa, ana shu-o‘qitish jarayonining asosi hisoblanadi [24]. Har bir dars, mavzu, o‘quv predmetining o‘ziga xos texnologiyasi bor. O‘quv jarayonidagi pedagogik texnologiya – bu aniq ketma-ketlikdagi yaxlit jarayon bo‘lib, u o‘quvchining ehtiyojidan kelib chiqqan holda bir maqsadga yo‘naltirilgan, oldindan puxta loyihalashtirilgan va kafolatlangan natija berishiga qaratilgan pedagogik jarayondir [25].

Pedagogning oldiga qo‘ygan maqsadning amalga oshishi va kafolatlangan natijaga erishishida, o‘qituvchi va o‘quvchining hamkorlikdagi faoliyati, ular qo‘ygan maqsad, tanlagan mazmun, metod, vositaga, ya‘ni texnologiyaga bog‘liq.

Pedagog va o‘quvchining yuqori natijaga erishishida qanday metodlarni tanlashlari ular ixtiyorida, chunki har ikkala tomonning asosiy maqsadi aniq natijaga erishishga qaratilgan bo‘lib, bunda o‘quvchilarning bilim saviyasi, guruh характери, sharoitga qarab, ishlatiladigan texnologiya tanlanadi [26-28]. Masalan, natijaga erishish uchun balki, ko‘rgazmali metodlar bilan ishlash lozimdir, balki amaliy metodlardan foydalanish kerak bo‘lar. Bularning hammasi o‘qituvchi va o‘quvchilarga bog‘liq. Shu bilan birga o‘quv jarayonini oldindan rejalashtirish zarur. Bu jarayonda o‘qituvchi o‘quv predmetining o‘ziga xos tomonini, talim joyi va sharoitni, eng

asosiysi, o'quvchilarning imkoniyati hamda ehtiyojini, hamkorlikdagi faoliyatini tashkil eta olishini hisobga olishi kerak. Shundagina, kerakli kafolatlangan natijaga erishish mumkin.

#### ADABIYOTLAR RO'YXATI.

1. Зокиров, Д. (2022). Ona tili va o'qish sav odxonligi darslarida matn ustida ishlash yo'llari. *Современные тенденции инновационного развития науки и образования в глобальном мире*, 1(2), 288-291.
2. Zokirov Javohir G'aybullo O'g'li (2023). ONA TILI VA O'QISH SAVODXONLIGI DARSLARIDA KLASSTER METODLARIDAN FOYDALANISH. *Science and innovation*, 2 (Special Issue 4), 76-79. doi: 10.5281/zenodo.7926259
3. Javohir G'aybullo O'g'li Zokirov (2023). ZAMONAVIY ONA TILI VA O'QISH SAVODXONLIGI FANINING YANGILANISHI, MAZMUNI VA AHAMIYATI. *Academic research in educational sciences*, 5 (NUU conference 3), 90-96.
4. Zokirov Javohir G'aybullo o'g'li, 1-3-Sinf O'Quvchilariga Ona Tili Va O'Qish Savodxonligi Fanidan Beriladigan Mashqlar Turlari, *Journal of Innovation, Creativity and Art: Vol. 2 No. 2 (2023): Journal of Innovation, Creativity and Art*
5. Javohir G'aybullo o'g, Z. (2023). 1-3-Sinf O'Quvchilariga Ona Tili Va O'Qish Savodxonligi Fanidan Beriladigan Mashqlar Turlari. *Journal of Innovation, Creativity and Art*, 2(2), 161-163.
6. Zokirov, J. (2023). SIFATLI TA'LIM BERISHDA ZAMONAVIY ONA TILI VA O'QISH SAVODXONLIGI DARSLIGINING ROLI. *Interpretation and Researches*, 2(1).  
извлечено от <http://interpretationandresearches.uz/index.php/iar/article/view/1134>
7. O'G'Li, Z. J. G., & Aliyarovich, T. E. (2022). BOSHLANG'ICH SINF ONA TILI VA O'QISH SAVODXONLIGI DARSLARIDA QO'LLANILADIGAN METODLAR. *BARQARORLIK VA YETAKCHI TADQIQOTLAR ONLAYN ILMIY JURNALI*, 131-142.
8. Zokirov, J., & Matluba, T. (2022). ALISHER NAVOIY HAYOTI VA IJODINI O'RGANISHDA MATN USTIDA ISHLASH USULLARI. *TA'LIM VA RIVOJLANISH TAHLILI ONLAYN ILMIY JURNALI*, 2(4), 218-223.
9. O'g'li, Z. J. G. (2022). O'QUVCHILARNING DUNYOQARASHI, BILIMINI OSHIRISHDA ONA TILI VA O'QISH SAVODXONLIGI FANINING AHAMIYATI. *PEDAGOGS jurnali*, 10(3), 124-129.
10. Muqimovich, Y. S. Use of Interactive Methods in Teaching Historical Topics in Primary School Reading Lessons. *JournalNX*, 326-329.

11. Yakubov, S., & Zokirov, Z. (2021). ЛЮБОВЬ К РОДИТЕЛЯМ И ПОЧИТАНИЕ ИХ-ОСНОВНОЕ ЗВЕНО ВОСПИТАНИЯ. *Theoretical & Applied Science*, (4), 439-442.
12. Zokirov, J. (2022). THE IMPORTANCE OF STRENGTHENING LESSONS IN STUDENTS' MOTHER TONGUE AND READING LITERACY. *Academic research in modern science*, 1(9), 344-348.
13. Sayfiddinovich, X. R., & Javohir Gaybullo og, Z. (2021). Boshlanganchi Sinf O'quvchilarida Ekologik Tafakkurni Shakllantirishning Etnopedagogik Asoslari. *BARQARORLIK VA YETAKCHI TADQIQOTLAR ONLAYN ILMIY JURNALI*, 1(6), 62-71.
14. Xurramov, R. S., Zokirov, J. G. O., & Temirova, M. K. Q. (2021). Ethnopedagogical Fundamentals of Developing Interest in Natural Aesthetics in Primary School Students. *Scientific progress*, 2(7), 832-839.
15. Xurramov, R. S., Zokirov, J. G. O., & Xurramov, M. S. (2021). Use Of The Heritage Of Central Asian Thinkers In The Formation Of Ethnopedagogical, Ethnographic Views Of Primary School Students. *Scientific progress*, 2(7), 846-853.
16. Xurramov, R. S., Zokirov, J. G. O., & Xurramov, M. S. (2021). Use Of The Heritage Of Central Asian Thinkers In The Formation Of Ethnopedagogical, Ethnographic Views Of Primary School Students. *Scientific progress*, 2(7), 846-853.
17. Sayfiddinovich, K. R. (2021). The Role of using Interactive Methods in Primary School Lessons. *BARQARORLIK VA YETAKCHI TADQIQOTLAR ONLAYN ILMIY JURNALI*, 1(6), 114-123.
18. Zokirov, J. G. O., & Xurramov, R. S. (2021). Formation Of Ethnopedagogical Views Among Students Through The Study Of The Life And Work Of Alisher Navoi. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 1(10), 339-343.
19. Yoqubov, S., & Zokirov, J. (2017). OQUVCHILARNI SAVOL BERISHGA ORGATISH USULLARI. In *НАУЧНЫЙ ПОИСК В СОВРЕМЕННОМ МИРЕ* (pp. 110-112).
20. Rahmat ogli, B. K. (2023). Bo 'lajak boshlang 'ich sinf o 'qituvchisining didaktik-metodik kompetentligi xususiyatlari. *Journal of Universal Science Research*, 1(10), 160-165.
21. Kamoliddin, B., & Kholiqovna, K. N. (2023). A CONCEPTUAL APPROACH TO THE DEVELOPMENT OF THE DIDACTIC-METHODICAL COMPETENCE OF THE FUTURE PRIMARY SCHOOL TEACHER. *World Bulletin of Social Sciences*, 21, 160-164.
22. Badalov, K. (2023). DEVELOPING THE CREATIVITY OF A PRIMARY CLASS TEACHER. *Open Access Repository*, 4(02), 141-148.

23. Kamoliddin, B. (2023, January). BOSHLANGICH SINFLARDA GEOMETRIK MATERIALLARNI ORGANISH MANTIQUIY KONIKMALARNI SHAKLLANTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI. In E Conference Zone (pp. 35-39).
24. Badalov, K., & Xolmurodova, N. (2022). BO 'LAJAK BOSHLANG 'ICH SINF O 'QITUVCHILARINI DIDAKTIK-METODIK KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH. *Conferencea*, 63-66.
25. BADALOV, K. (2022, April). TOOLS FOR HELPING TO DEVELOP THE LOGICAL SKILLS OF PRIMARY SCHOOL STUDENTS IN THE TEACHING OF GEOMETRIC MATERIALS. In E Conference Zone (pp. 214-217).
26. Baxtiyorovich, T. H. (2023). BOSHLANG 'ICH SINF O 'QUVCHILARIDA AXBOROTLARNI TIZIMLI TARKIBLASHTIRISH KO 'NIMALARINI SHAKLLANTIRISHDA DIDAKTIK YONDASHUVLARNING AHAMIYATI. *Journal of Universal Science Research*, 1(10), 153-159.
27. Tojiyev, H. (2023). FORMING THE ABILITY TO STRUCTURE INFORMATION TECHNOLOGY. *Conferencea*, 105-113.
28. Baxtiyorovich, H. T. (2022). OO 'QUVCHILARDA AXBOROTLARNI TIZIMLI TARKIBLASHTIRISH TEXNOLOGIYASINING ZAMONAVIY USULLARI VA TAMOYILLARI. *Conferencea*, 139-147.
29. Baxtiyorovich, T. H. (2021). Ways to Organize Extracurricular Activities in Mathematics and Teaching Methodology. *International Journal of Human Computing Studies*, 3(10), 7-9.